

Olly Ta'lim Filologik Yo'nalishlarida Raqamli Vositalardan Foydalanish Tajribasi Xususida

*Baxridinova Mutabarxon Adaxamovna*¹

Annotatsiya: Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'limning barcha ishtirokchilari o'qituvchilar va talabalarining faoliyati uchun yangi sharoitlar yaratdi. Ushbu maqolada oliy ta'limda raqamli vositalardan foydalanish tajribalari haqida fikr yuritilgan. Raqamli ilovalarning ta'lim jarayoniga ta'sirini chet tili darslariga integratsiya qilinishi va ularni talabalar motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishi bilan birgalikda interaktivlikni ta'minlashi xususida misollar keltiriladi

Kalit so'zlar: autentik internet manbalari, raqamli vositalar, nemis tili, optimallashtirish, didaktik vositalar, platforma, motivatsiya

Oliy ta'limda raqamli vositalardan foydalanish masalasi juda dolzarb bo'lib, bu sohada ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Raqamli vositalar va texnologiyalarning bir qancha turlari mavjud bo'lib, bularga Learning Management Systems (LMS) (masalan, Moodle, Blackboard) ham kiradi va bu ta'lim jarayonlarini tashkil qilish va boshqarishda samaradorlikni oshiradi.[1] Bundan tashqari interaktiv platformalar ham mavjud bo'lib, (masalan, Zoom, MS Teams) bular esa masofaviy ta'limda faol qo'llaniladi. Yana mobil ilovalardan (Duolingo, Quizlet) kabilar til o'rganishda samarali qo'llaniladi. Raqamli ilovalarning ta'lim jarayoniga ta'sirini chet tili darslarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Raqamli ilovalar talabalar motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishi bilan birgalikda interaktivlikni ta'minlab, talabalarining o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. O'z o'rnida raqamli ilovalar talabalarga individual yondashuvni ta'minlaydi. Raqamli platformalar yordamida talabalar o'zlarining bilim darajasiga mos materiallarni tanlash imkoniga ega bo'ladi. Ular talabalarda ko'nikmalarni rivojlantiradi hamda ko'rgazmali va amaliy materiallar orqali analitik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Raqamli ilovalar lingvodidaktik tamoyillarni quyidagicha qo'llaydi:

- **Kommunikativ kompetentsiya:** Interaktiv muloqotlarni (masalan, dialoglar yoki ovozi topshiriqlar) taklif qiluvchi ilovalar orqali talabalar haqiqiy til muhitida bo'lishga yaqinlashadi. Bu, ayniqsa, talaffuz va til o'rganishda muhimdir.
- **Integrativ yondashuv:** Grammatik bilim, talaffuz, tinglash va yozish ko'nikmalari bir vaqtda rivojlantiriladi.
- **Qo'llab-quvvatlovchi muhit:** Talabalar xatolaridan o'rganib, o'rganish jarayonida xatolarning sabablarini tushunishlari uchun tuzatilgan javoblar oladi.
- **O'quv maqsadlariga erishish:** Ilovalarda bosqichma-bosqich o'sish va ma'lum darajaga erishish uchun aniq o'quv maqsadlari belgilangan. Bu o'quvchining rivojlanishini tahlil qilishni osonlashtiradi.

Masalan, **Lingo va Busuu** kabi platformalar talabalarga o'zining o'quv maqsadlariga mos ravishda resurslarni taqdim etadi va ularga erishish uchun yo'l xaritasini taklif qiladi. Kognitiv til o'qitish nazariyasi bo'yicha til o'rganish inson miyasi tomonidan qanday qabul qilinishi, qayta ishlanishi va esda qolishi bilan bog'liq[2]. Raqamli ilovalar (masalan, o'yinlar, kvizlar) talabalarining diqqatini jalb qilishi va yangi so'zlarni yaxshiroq eslab qolishiga yordam beradi.

¹ Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti



Kommunikativ yondashuv chet til o'qitishning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, raqamli ilovalar orqali tilni o'rganish jarayonida talabalarning o'zaro muloqoti kuchayadi. Masalan, **Zoom** yoki **Teams** orqali real vaqtda suhbatlar, muhokamalar va turli topshiriqlar orqali talabalar o'zaro muloqot qilishadi.

Konstruktivistik yondashuvda talabalar bilimlarni mustaqil ravishda qurishlari, ya'ni o'z tajribalariga asoslangan holda o'z bilimlarini shakllantirishlari kerak. Raqamli ilovalar orqali talabalar mustaqil ravishda resurslarni izlash, video ko'rish yoki vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Raqamli ilovalar orqali chet til o'qitish bir necha usul va vositalarga bo'linadi:

Duolingo, Babbel, Memrise kabi til o'rgatish ilovalari mavjud. Bu ilovalar o'yin elementlari orqali talabalar bilimlarini oshiradi. Har bir mashg'ulot talabalar bilimlarini bosqichma-bosqich kengaytirishga yordam beradi.

Moodle, Google Classroom, Edmodo Virtual sinf va LMS tizimlari darslarni tashkil qilish, vazifalarni baholash va o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi muloqotni ta'minlaydi. Spotify, Audible Eshitish va nutq ko'nikmalarini rivojlantiruvchi vositalar platformalar yordamida talabalar turli podkastlar va audiokitoblarni tinglash orqali eshitish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

- **Speaky, Tandem** kabi platformalar esa talabalarni ona tilisi nemis bolgan yoki boshqa chet tili sohiblari bilan muloqot qilishga yordam beradi.
- Oliy ta'limda til o'qitish jarayonini optimallashtirish uchun quyidagi didaktik vositalar mavjud:
- **Gamifikatsiya:** O'yin elementlarini o'quv jarayoniga kiritish talabalarni qiziqtirish va motivatsiyani oshirish uchun qo'llaniladi.
- **Flipped Classroom (Teskari sinf):** Talabalar nazariy materialni mustaqil ravishda o'rganadilar, keyin esa auditoriyada amaliy mashg'ulotlar o'tkazadilar. Bu usulda raqamli platformalar yordam beradi.

Raqamli vositalarni oily ta'limda chet til o'qitishda qo'llashning quyidagi afzalliklarini sanab o'tamiz:

- **Interaktivlik:** Talabalar mashqlarni real vaqt rejimida bajaradilar va natijalarni darhol oladilar.
- **Moslashuvchanlik:** Talabalar istalgan joyda va vaqtda o'rganishlari mumkin.
- **Tajriba boyligi:** Multimediya materiallari, videolar, audiolar va boshqa interaktiv resurslar orqali bilimlar yanada chuqurroq o'zlashtiriladi.

Raqamli ilovalar orqali til o'qitishga kelsak, raqamli texnologiyalar, xususan ilovalar til o'qitish jarayonini sezilarli darajada o'zgartirdi.[3] Ushbu texnologiyalarning ba'zi turlarini sanab o'tamiz:

- **Duolingo, Babbel, Memrise** kabi ilovalar tilni mustaqil o'rganish uchun keng qo'llaniladi.
- **Quizlet** va **Anki** kabi ilovalar yangi so'zlarni eslab qolishga yordam beradi.
- Grammarly va Language Tool kabi vositalar yozma tilni tekshirishda va yaxshilashda qo'llaniladi.
- **Zoom** yoki **Google Meet** orqali virtual darslar o'tkazish ham samarali bo'lmoqda.

Raqamli texnologiyalar o'qish jarayonlarining vositachi elementlari sifatida o'qituvchilarga an'anaviy ierarxik modeldan ajralib chiqish imkoniyatini beradi. Talabalar yozadigan, o'qiydigan, o'rganadigan, o'zaro ta'sir qiladigan, birgalikda quradigan va o'zlarining shaxsiyatlarini aniqlaydigan ramkalar va tarmoqlarni shakllantiradi. O'quv jarayonlariga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish dars jarayonlarini sifatini oshiradi hamda darslarni qiziqarli va tushunarli bo'lishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytilish munkinki, raqamli texnologiyalarning oliy ta'lim darslariga integratsiyalashuvi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, turli dinamikaga ega. O'quv jarayonlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali ko'plab qiziqarli va yangi hamda animatsion vedioroliklar orqali dars sifati oshibgina qolmay, zamoniy metodikaga ega bo'lgan o'qituvchi metodikasi rivojlanib boradi.



Adabiyotlar:

1. Бузунова Н. А. Актуальность применения интернет-ресурсов при обучении иностранным языкам / Н. А. Бузунова, В.В. Зудаева Правовестник. 2019. № 6.
2. Ваганова О. И. Цифровые технологии в образовательном пространстве / О. И. Ваганова, А. В. Гладков, Е. Ю. Коновалова [и др.] // Балтийский гуманитарный журнал. 2020. № 2 (31)
3. Цифровые технологии (в праве). Большая российская энциклопедия. URL: https://bigenc.ru/c/tsifrovye_tekhnologii-v-prave-a80897 (2023)

